O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O’ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
O‘zDJTU rektor
__________ I.Tuxtasinov
“____”____________ 2023 yil

**Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga kiruvchilar uchun 10.00.09 – Jurnalistika ixtisosligidan**

# DASTUR

Toshkent – 2023

**Tuzuvchilar:** filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.Karimov

filologiya fanlari nomzodi O.Toshboyev

**Taqrizchilar:** O‘zJOKU, filologiya fanlar doktori F.Mo‘minov,

O‘zDJTU, filologiya fanlari nomzodi S.Yuldashbekova

# 1. KIRISh

Jurnalistika ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchilar jurnalistika sohasining o‘ziga xosligi, uning an’anaviy va zamonaviy talablarini bilish uchun nazariy bilim oladilar. Fanlararo aloqa va jurnalistika bo‘yicha nazariy fanlarni o‘rganish eng muhim va yaxshi omil hisoblanadi. Jurnalistikaning ijtimoiy fanlar ichida o‘ziga xos xususiyatlari, uning asosi bo‘lgan OAV va bugungi kommunikativ makonda OKVning asosiy vazifalarini to‘g‘ri tadqiq etishda yordam byeradi. Jurnalistika ixtisosligi bo‘yicha bilim byeruvchi fan o‘zining mustaqil fan maqomiga ega bo‘layotganligi, uning umumfilologik ahamiyatini borgan sari ortayotganligidan dalolat byeradi. Ayniqsa, jurnalistika matbuot tarixi va nazariyasi, jurnalistikaning an’anaviy va zamonaviy tendensiyalari, prinsiplari, OAV qonunchiligi va jurnalist etikasi, zamonaviy ommaviy kommunikativistika, jurnalistika sosiologoiyasi va psixologiyasi, axborot xizmatlari va jamoatchilik bilan aloqalar, jurnalistika janrlari va mahorat masalalari, OAV tili va uslubi singari fanlarni bir butun qilib bog‘laydi. Bu yo‘nalishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan katta ilmiy xodim tadqiqotchilarning bilimini boyitishga xizmat qiladi.

Jurnalistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Jurnalistika tushunchasining asosiy mazmuni. Jurnalistika nazariyasining asosiy qismlari va yo‘nalishlarining qisqacha tahlili. Jurnalistikaning nazariyasi va amaliyotida kasbiy bilim ko‘nikmalarning mustaxkamlash va rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo‘yiladi. Jurnalistika fani doirasida olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning oldiga qo‘yiladigan asosiy vazifalari jumlasiga zamonaviy matbuotshunoslik tadqiqotlari kontekstida axborotning mohiyati, kommunikativ makonda axborotga qo‘yiladigan ko‘xna va zamonaviy talablar, OAV va uning axborot qay yo‘sinda yetkazish bilan bog‘liq muammolarni tekshirish, Jahon va milliy jurnalistikaning qonuniyatlari, prinsiplari va rivojlanish tendensiyalarini, zamonaviy kommunikasiya nazariyasining asosiy kategoriyalarini, amaliy jurnalistikada mahorat muammolarini tadqiq etish matyeriali va uslublarini ko‘rib chiqish kiradi.

## 2. Kirish imtihonining asosiy talablari

Tayanch doktoranturaga kirish imtihonida quyidagi mavzular bo‘yicha o‘z fikr mulohazalarini bayon qila olishi talab etiladi. Ommaviy axborot vositalari tarixi, nazariyasi, amaliyoti va sosiologiyasi, uning paydo bo‘lishi, shakllanishi va zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari, jurnalist faoliyatining fundamental va amaliy asoslari, jurnalistik asarda mazmun (g‘oya, fikr, fakt, tahlil va sintez, mualliflik pozisiyasi, publisistik ruh) va shakl (til, uslub va janrlar), yangiliklar jurnalistikasi, madaniy-ma’rifiy va rekreativ jurnalistikaning o‘ziga xosliklari, jamiyatda OAVning siyosiy, iqtisodiy va madaniyatni rivojlantirishdagi o‘rni, auditoriya bilan ikki

tomonlama aloqa uslublari, 4-hokimiyat sifatida jurnalistikaning o‘rni masalalari qamrab olingan.

Shuningdek, gazetalarning jamoatchilik nuqtai nazari va fikrlarini ifoda etuvchi vositaga aylanganini tahlil etish; jurnalistikaning tarixiy tiplari, elektron OAVning paydo bo‘lishi, OAVning «to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi nazariyasi va amaliyoti, axborot agentliklari va ularning vazifalari, ishlash metodlari, tasnifi, yangi kommunikasiya tartibining o‘rnatilishini tahlil eta bilish bilan ham bog‘liq. Ushbu masalalar axboriy jamiyat nazariyasi, xalqaro bosma va elektron OAVning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari, xalqaro jurnalist faoliyatining kasbiy-axloqiy me’yorlari, jurnalistikada milliy mentalitet muammolari, xalqaro sharh mahorati, Intyernet OAV tizimida, matbuot samaradorligi, xozirgi zamon vaqtli matbuotining tipologik shakllanishi omillari, vaqtli matbuotning zamonaviy dizayni kabi fanlardan ham etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarurdir.

## 2.1. Jurnalistika ixtisosligi bo‘yicha dastur

Milliy va xalqaro OAV tizimlarida jurnalistik faoliyatda kasbiy faoliyatni rejalashtirish va modellashtirish,ommaviy axborot vositalari (OAV), nashriyotlar, axborot ilmiy-texnik xizmatlari, jamoatchilik bilan aloqa xizmatlari, axborot va reklama agentliklari, intyernet va matbuot xizmatlarining tezkor va istiqbolli ishlab chiqarish va ijodiy faoliyatini muvofiqlashtiradigan uzluksiz kompleks jarayonini rejalashtirish va tashkillashtirishn, kundalik, haftalik va oylik nashrlar matyeriallarini hamda turli adabiy qo‘lyozmalarni ishlash va qayta ishlashda, baholashda ilg‘or zamonaviy usul va uslublarni takomillashtirish va tadbiq etish. Bo‘lg‘usi katta ilmiy tadqiqot quydagi ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni bilishi zarur.

**Xalqaro sharh.** Sharh, komentariyaning o‘ziga xos xususiyatlari va ko‘rinishlari, OAVda xalqaro hayotning yoritilishi, OAVning turli kanallarida xorijiy axborotning byerilishi, OAVda xalqaro hayot yoritilishi muammolarining asosiy yo‘nalishlari, xalqaro sharh uchun axborot manbalari, xalqaro jurnalist faoliyatining xususiyatlari, VIP – shaxslar bilan muloqotning xususiyatlari.

**Xalqaro munosabatlar.** Xalqaro munosabatlar tushunchasi haqida, xalqaro munosabatlar maydoni – iqtisod, siyosat, mafkura, madaniyatlar haqida, xalqaro munosabatlarning mafkuralashganligi, xalqaro maydonda turli ijtimoiy-siyosiy tuzumlarning to‘qnashuvlari va raqobati haqida, etakchi va rivojlanayotgan davlatlarning tashqi siyosati tendensiyalari, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati, xalqaro munosabatlarning OAV xaraktyeriga, shakl va uslublariga ta’siri, ilmiy-texnik taraqqiyot va uning xalqaro munosabatlar hamda axborot tarqatishga ta’siri, xalqaro axborot dunyosi, global xaraktyerga ega bo‘lgan xavfsizlikka tahdid masalalari, diniy ziddiyatlar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi va

tajovuzkor millatchilik tushunchalari, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, ekologik muammolar.

Davlatchilik tushunchasi, davlatning mudofaa qobiliyati, demokratik institutlar va fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, bozor munosabatlari, geostrategik potensial, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalari; ijtimoiy siyosat va aholining ijtimoiy faolligi, xalqaro hamkorlikning kafolatlari, O‘zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyati bilan integrasiyalashuvi.

**Xalqaro bosma va elektron OAVning zamonaviy taraqqiyot tendensiyalari.** OAV evolyusiyasi, taraqqiyotining asosiy bosqichlari, birinchi axborot bosma varaqalari, relyasiyalari, vedomostlar, birinchi matbaa nashrlari, gazetalarning jamoatchilik nuqtai nazari va fikrlarini ifoda etuvchi vositaga aylanganligi. Jurnalistikaning tarixiy tiplari, elektron OAVning paydo bo‘lishi, OAVning “to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi nazariyasi va amaliyoti, axborot agentliklari va ularning vazifalari, ishlash metodlari, tasnifi, yangi kommunikasiya tartibining o‘rnatilishi, Evropa OAV zamonaviy tamoyillari. Zamonaviy AQSh OAVning ana’anaviy ko‘rinishlari, Angliya matbuotining taraqqiyoti bosqichlari haqida, XX asr boshlarida matbuotning “sifatli” va “ommaviy” kabi turlarga farqlanishi, Buyuk Britaniya gazetalarninig siyosiy yo‘nalishlari, Gyermaniya matbuoti paydo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari , Fransiya kundalik matbuotining paydo bo‘lishi va taraqqiyot bosqichlari, Italiya matbuoti tarixi va amaliyoti, yirik Italiya nashriyotlari va tele-radio tarmoqlari, Vatikan matboti.

Osiyo OAVning zamonaviy tamoyillari Yaponiyadagi sifatli umummilliy gazetalar, ixtisoslashgan matbuot, siyosiy partiyalar matbuoti Yaponiya televidiniesi va radiosi, axborot angentliklari. XXRining tashkil topishi va yangi OAV tizimining taraqqiyoti, axborot angetliklari, Xitoy tele va radio evolyusiyasi. Ispaniya, Isroil, Turkiya, Hindiston jurnalistikasi, Eron, Afg‘oniston, Pokiston kundalik matbuoti taraqqiyoti, Arab mamlakatlari, Janubiy-Sharqiy Osiyo matbuoti, Afrika, Avstraliya mintaqalari OAV taraqqiyoti haqida, Sharqiy Evropa va Lotin Amyerikasi mamlakatlaridagi yangi axborot tartibi.

**Xalqaro jurnalist faoliyatining kasbiy-axloqiy me’yorlari.** Buyuk Britaniya, Gyermaniya, Ispaniya, AQSh, Fransiya, Shvesiya, Rossiya, Yaponiya OAV sohasidagi huquqiy aktlar va nizomlar, Evropa inson huquqlari konvensiyasida matbuot erkinligi, Evropa hamjamiyati matbuoti haqidagi qonunlar mohiyati, axborot sohasidagi xalqaro va xalqaro-huquqiy hujjatlar bo‘yicha shartnomalar, rivojlangan mamlakatlar qonunlar tizimi, rivojlangan mamlakatlar, rivojlangan mamlakatlarda matbuotning o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari.

Bo‘hton uchun javobgarlik, shaxsiy hayotga daxl qilgani uchun javobgarlik, javob byerish yoki tuzatish huquqi, davlat organlari va mansabdor shaxslarni haqorat qilgani uchun javobgarlik, davlat siri va hukumat axborotlarini olish huquqi, sud jarayonlarida qatnashish va sud matyeriallarini chop etish, parlament majlislarida

qatnashish va parlament matyeriallarini chop etish, tijorat siri va xususiy shaxslarga tegishli axborotni olishga qo'yiladigan talablar, dastlabki cheklashlar va axborot manbalarini himoya qilish, muayyan guruhlarga nisbatan haqoratli iboralardan foydalanishni chegaralash, ijtimoiy axloq va diniy tuyg'ularni haqoratlashdan himoya qilish, reklamani chegaralash to'g'risida.

Jurnalist faoliyatining kasbiy va etik xususiyatlari. Xalqaro va milliy kasb etikasi, muomala etikasi, intyervyu olish etikasi, olib boruvchi, kommentator, sharhlovchi (sport sharhlovchisi) etikasi, ijod etikasi, jurnalist tekshiruvi, sosiologik tadqiqot o'tkazish etikasi, jurnalist intizomi etikasi.

**Jurnalistikada milliy mentalitet muammolari.** Alohida olingan polietnik jamiyatlarda millatlararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turuvchi konstitusion me'yorlar. Irqiy, etnik, konfessional, madaniy o'ziga xosligi va e'tiqodi bo'yicha kamsitish, zo'rlashlarni ta'qiqlovchi qonuniy hujjatlar, tarix, an'analar, urf-odatlar, rasm-rusmlar, u yoki bu xalqlarning yashash tarzlari, u yoki bu milliy tashkilotlar, davlatlar, polietnik jamiyatlarning struktura-tizimlari, ko'pmillatli davlatlarning tarixiy-demografik muammolari, muayyan hududlar, regionlar va davlatlardagi milliy ziddiyatlar.

**Axboriy jamiyat nazariyasi.** Axborot infratuzilmasi tushunchasi. Yangi axborot tartibi istiqboli, xalqaro kommunikasiya sohasidagi siyosat, axborot sohasidagi raqobat va axborot bozori hududi borasidagi siyosat, xalqaro fondlar, jurnalistika bo'yicha tashkilotlar, jumladan, BMT, YuNESKO faoliyati xususida. Yagona axborot hududi nazariyasi, xalqaro axborot oqimini boshqarish muammolari, milliy axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari.

Xalqaro va axborot makoni tahlili va baholash metodlari, axborot infratuzilmalari faoliyatining mexanizmlari, yangi axborot tartibining ustivor yo'nalishlari, axborot sohasi va axborot bozorida raqobatchilik qonuniyatlari, BMT, YuNESKO, XOK jurnalistika bo'yicha xalqaro tashkilotlar va fondlar bilan hamkorlik texnologiyalari, yangi axborot texnologiyalari bilan ishlash tajribasi, xalqaro axborot tarqatishni boshqarishning vositalari va resurslari, milliy axborot xavfsizligini ta'minlashning metodikasi va texnikasi, O'zbekiston OAVining jahon axborot makonida integrasiyalash usullari.

Jurnalistika ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va ushbu mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

Jurnalitika ixtisosligiga qo'yiladigan muayyan talablar kadrlar buyurtmachilarining talablari va ushbu mutaxassislik bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari hisobga olingan holda oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyov Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 29 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligini garovi. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 47 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 485 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Matbuot va OAV xodimlariga bayram tabrigi, https://president.uz/uz/lists/view/1864, 27.06.2018.

**Rasmiy adabiyotlar:**

1. “To‘rtinchi hokimiyat” Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risidagi O‘zR qonunlari, qarorlar va boshqa hujjatlari to‘plami. – Toshkent: Mehnat, 2003.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2002.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish erkinliklari va prinsiplari to‘g‘risida ”gi Qonuni. //“To‘rtinchi hokimiyat”. – Toshkent.:, Mehnat, 2003.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni. //“To‘rtinchi hokimiyat”. – Toshkent.: Mehnat, 2003.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. //“To‘rtinchi hokimiyat”. – Toshkent.:, Mehnat, 2003.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Noshirlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. //“To‘rtinchi hokimiyat” – Toshkent.:, Mehnat, 2003.
7. Inson huquqlari (Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill). Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. A. Abduqodirov tarjimasi. – Toshkent.: Adolat, 1992 y. – 64 bet

**Maxsus adabiyotlar:**

1. Mo‘minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. - T., 1998. 14. Voroshilov V.V. Jurnalistika. Uchebnik. SPb.: Izd. Mixalova, 1999.
2. Proxorov Ye.P. Vvedeniye v teoriyu jurnalistiki. Uchebnik. M.: Izd. Moskovskogo universiteta. 2005.
3. Kim M.N. Novostnaya jurnalistika. Uchebnik. Spb., 2003. 347 s.
4. Kim M.N. Texnologiya reportaja. Uchebnik. SPb.: Izd-vo Mixaylova, 2004.
5. Тертыcнпыу A.A. Jaпrы periodicheskoy pechati. Uchebnik. Moskva, Aspekt Press. 2000.
6. Do‘stmuhamedov X. Axborot mo‘jiza, joziba, falsafa. «Yangi asr avlodi» nashriyoti,Toshkent, 2013y. 320b.

7. Mo‘minov F. A., Nurmatov A.N. va boshqalar. Jahon jurnalistikasi tarixi. Darslik. Toshkent. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2006 yil.
8. Mediaekonomika zarubejnых stran: Uchebnoye posobiye/ Yelena Vartanova. – M.: Aspekst Press, 2003. – 335 s.
9. Ekonomika otechestvennых SMI. Uchebnoye posobiye. Gurevich S.M., M.: Aspekt Press, 2004. 288 s.
10. “Bosma ommaviy axborot vositalari uchun qo‘llanma”. N.Kosimova va b. T.2008., 154 b.
11. “Reporyorlik faoliyati nazariyati va amaliyoti”. O‘quv qullanma. Q.T.Ernazarov va b. O‘zMU. 2002, 200 b.
12. Bagdikyan B. Monopoliya sredstv informasii. M.: Progress, 1987. 249 s.
13. Ot knigi do Interneta. Jurnalistika i mir na rubeje novogo tысyacheletiya / Otv.red. Ya.N.Zasurskiy, Ye.L.Vartanova. M.: Izd-vo Mosk. un- ta, 2000. 236 s.
14. Organizatsiya rabotы otdela novostey. R.Kembell. Materialы seminara dlya direktorov otdelov novostey. ANO Internyus.: 1998, - 52 s.
15. Fixtelius E. Desyat zapovedey jurnalistiki, Stokgolm, 1999 g. 189 s.
16. Spravochnik dlya jurnalistov stran Syentralnoy i Vostochnoy Yevropы. Redaktor – sostavitel – M.F.Mellet.- M.: «Prava Cheloveka», 1998. 152 s.
17. Toffler E. Tretya volna. M.: Izd. ACT, 1999, 776 s.
18. Journalism. Career Handbook. Oxford Presss, 2007, p 243
19. W.A.Hatchen, J.E.Scotton. The world news prism, Iowa State Press, 2002, p.355.
20. Vivial, John. The Media of Mass Communacation – 5th ed. Winona State University, 1999, p.403.
21. Stephens, Mitchell. Broadcasting News. 3 ed. Fort Worth, Harcourt Brace Jovanovich, 1993, - p.425.
22. Serrin, William, ed. The Business of journalism: Ten Leading Reporters and Editors on the Perils and Pitfalls of the Press. New Press, 2000, p.376.
23. Webster F. Theories of the Information Society. London: Routledge, 1997. p.432.
24. Stanley J.Baran. Introduction to mass communication. Media literacy and culture – 2nd ed., p.518.
25. Richard R. Media Economics. Concepts and Issues. London: Sage, 1989. p.218.
26. Peter E. Mayeux. Broadcast news. Writing and reporting. - 2nd ed. University of Nebraska – Lincoln, 1996. p.435.
27. Esser F. Tabloidization of News. Comparative Analisys of Anglo- American and German Press. Journalism// European Journal of Communication. 1999. Vol.14, #3. P.292.
28. Digital Journalism: Making News, Breaking News. US, New York, Open Society Foundations. 2014.
29. Harris L., Television Production & Broadcast Journalism, Second Edition. The Goodheart-Wilcox Company Inc.
30. Karimov A. Audiovizual jurnalistika (telejurnalistika). T., O‘zDJTU, 2012
31. Jurnalistika (10-jildli), Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2019.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Rahmatov N. Men redaksiyadanman. –T., 1985.
2. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqiyot. –T., “Fan”, 2004.
3. Professional mahorat sari to‘rt qadam. (Jurnalistlar uchun o‘quv qo‘llanma). –T., 2002.
4. Melnik G.S., Teplyashina A.N. Osnovы tvorcheskoy deyatelnosti jurnalista. -SPb.: Piter, 2006. – 272 s.
5. Saidov H. Yangiliklar yozish va tahrir san’ati. T.: «Ma’rifat- madadkor», 2002. - 56 b.
6. Melvin Mencher. News Reporting and Writing. - Seventh edition. - USA, Brown and Benchmark, 1997.-712 p.
7. Ernazarov Q. T. va boshqalar. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. O‘quv qo‘llanma.T.: Zarqalam. 2002.
8. Devid Rendall. Universalnыy jurnalist. Almatы, 1996.
9. Muminov F.A. Metodы jurnalistiki i metodы deyatelnosti jurnalistov. T.: «Universitet», 1998.
10. Strelsov B.V. Osnovы jurnalistiki. Janrы. Minsk: 1990.
11. Zasurskiy Ya.N. Iskusheniye svobodoy. Rossiyskaya jurnalistika: 1990– 2004. – Moskva: Izd. MGU, 2004.
12. Proxorov Ye.P. Jurnalistika i demokratiya. Uchebnoye posobiye. Moskva: Izd. «Aspekt Press», 2004.
13. Solomon L. Vseobщaya istoriya pressы. Per. s nem. V kn. «Istoriya pechati. Antologiya». M.: «Aspekt press». 2001.
14. Abduazizova N. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – T.: “Akademiya”, 2002.
15. Abduazizova N. Mustaqil O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – T.: “Akademiya”, 2007.
16. Terry Ellmore R. Mass Media dictionary. USA. Lincolnwood, Illinois, 1992. - 668 p.
17. Sredstva massovoy informasii Respubliki Uzbekistan. Sost.: F.Parpiyev, Tipografiya IA «Jahon», 1997 g. S.141.
18. Who owns what // Columbia journalism review. http://www.cjr.org/